

Germaniya delegatsiyasi bilan uchrashuv



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Strategik va Mintaqalararo Tadqiqotlar Institutida Germaniyaning Federal xavfsizlik siyosati akademiyasi vitse-prezidenti Wolfgang Rudishhauser boshchiligidagi Germaniya delegatsiyasi bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.



Federal Xavfsizlik Siyosat Akademiyasi 1992 yilda tashkil etilgan bo'lib, strategik xodimlarni tayyorlash bo'yicha Germaniyaning yetakchi ilmiy va ta'lim markazi hisoblanadi. Akademiyaning o'quv dasturlari, davlat xizmatchilarini, harbiy rahbarlarni, yuqori menedjerlarni, akademik va jurnalistlarni xavfsizlik siyosatiga yondashuvini va umumiy qarashlarini orgatishga va uni oshirishga qaratilgan.



Mehmonlar bilan suhbat chog'ida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashning ijobiy tendensiyalari, shuningdek, siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarda O'zbekiston-Germaniya munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.



Germaniya delegatsiyasining baxosiga ko'ra, O'zbekistonning olib borayotgan tashqi siyosati va qo'shni mamlakatlar bilan a'loqalarni mustahkamlanishi, Toshkentning Yevropa Ittifoqi bilan ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratmoqda. Berlinda bu jarayon katta qiziqish uyg'otmoqda va to'liq qo'llab-quvvatlanadi.

Shu munosabat bilan germaniyalik hamkorlar bilan o'zaro, xalqaro anjumanlarda davra suhbatlarini va qo'shma tadbirlarni tashkil etish imkoniyatlari muhokama qilindi.

